

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISILARIDA O'QISH MALAKALARINING SIFATI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Rasulova Sevinch,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchisida obrazli idrok qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganishda adabiy janrlarni tahlili haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, obrazli idrok, hissiy-emotsionallik, o'quv-biluv faoliyati, tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, kreativ yondashuv, ta'lim muassasasi.

Annotation: This article presents theoretical information about the analysis of literary genres in the study of pedagogical and psychological features of the formation of image perception skills in primary school students.

Key words: fiction, imaginative perception, emotionality, educational activities, critical thinking, creative abilities, creative approach, educational institution.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические сведения об анализе литературных жанров при изучении педагогико-психологических особенностей формирования навыков восприятия образов у учащихся младших классов.

Ключевые слова: художественная литература, образное восприятие, эмоциональность, учебная деятельность, критическое мышление, творческие способности, творческий подход, образовательное учреждение.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiyy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

O'qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin. Shulardan biri ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

Barchamizga ma'lumki, 6 yoshli bola hayotida keskin burilish va o'zgarishlar davrini boshlash arafasida turadi. Maktab yoshiga o'tish uning faoliyatida, muloqotida, boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlaridagi jiddiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib bola faoliyatining yetakchi turi o'qish faoliyati bo'lib maydonga chiqadi, bolaning yashash tarzi ham o'zgaradi, u uchun yangi burch va vazifalar paydo bo'ladi, bolaning atrofdagilar bilan munosabati ham yangicha mazmun kasb eta boshlaydi.

Biologik nuqtai nazardan boshlang'ich sinf o'quvchilari ikkinchi shakllanish davrini boshdan kechiradi: ularda oldingi yosh davriga nisbatan bo'yining o'sishi sekinlashadi, vazn esa sezilarli darajada ortib boradi; skelet tizimi suyaklasha boshlaydi, ammo jarayon hali davom etayotgan bo'ladi; muskul tizimining intensiv o'sishi kuzatiladi. Qo'l kaftining mayda muskullari rivojlanishi natijasida bola qo'li bilan birqancha nozik yozish, chizish ishlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada unda tez va chiroyli yozish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Muskullarning kuchi ham sezilarli darajada ortib boradi. Bu davrda bola organizmining barcha to'qimalari o'sish holatida bo'ladi.

Bu davrga kelib bola asab tizimi takomillashib boradi, bosh miya katta yarim sharlari faoliyati o'sadi, miya po'stlog'idagi analitik-sintetik faoliyat kuchayadi. Kichik maktab yoshi davrida miyaning og'irligi ham oshib, qariyb katta kishi miyasining og'irligi bilan tenglashadi. Uning og'irligi o'rtacha 1400 grammgacha yetadi. Bolaning psixikasi tez rivojlana boshlaydi. Qo'zg'olish va tormozlanish o'rtasidagi munosabat o'zgaradi: tormozlanish jarayoni kuchliroq bo'ladi, ammo qo'zg'olish jarayoni avvalgidek, ustunlik qiladi, kichik maktab yoshi davrida bolalar yuqori darajada qo'zg'aluvchan bo'ladilar. Sezgi organlari ishining aniqligi ortib boradi. Maktabgacha yoshdagi davr bilan taqqoslaganda ularda rangga nisbatan sezgirlik 45%, suyak-muskul orqali sezish 50%, ko'rish sezgisi 80% ga ortadi (A.N.Leontev).

Boshlang'ich sinf o'quvchisining o'quv-biluv faoliyati, ko'pincha, ta'lim jarayonida kechadi. Muloqot doirasining kengligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshi davrida o'zgarishlar va rivojlanishning tez sur'atlarda kechishi, bolalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan yangi sifatlarning haddan ziyod ko'pligi pedagoglardan ta'lim-tarbiya faoliyatini qat'iy maqsadga yo'nalganlik asosida tashkil etishni talab qiladi.

Kichik maktab yoshi davrida bolalarning idroki beqaror va notashkiliyligi, shu bilan bir qatorda o'tkirligi va tozaligi bilan ajralib turadi. Bola 6 va 9 raqamini, g va q harfi belgilarini adashtirishi mumkin, ammo bir vaqtning o'zida har kuni uning qarshisida yangicha ko'rinishda namoyon bo'layotgan tevarak hayotni jonli qiziquvchanlik bilan qabul qiladi. Idrokning kam tabaqalashganligi, analiz qilish ko'nikmalari sustligi uning yorqin hissiy ifodalanganligi bilan to'ldiriladi. Idrokning aynan ana shu ijobiy sifatiga tayangan holda tajribali o'qituvchilar asta-sekin bolalarda maqsadli eshitish, ko'rish hamda kuzatish ko'nikmalarini shakllantirib boradilar. Shu tariqa kichik maktab yoshi davrining birinchi bosqichi yakunida bolaning idroki maqsadli faoliyat sifatida murakkablashadi va chuqurlashadi, tahlil qiluvchi va tabaqalashgan bo'ladi.

Kichik maktab yoshi o'quvchisining diqqati ixtiyorsiz, beqaror, hajmiga ko'ra chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limda butun ta'lim-tarbiya mazmuni bolalarda maqsadli diqqat madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Maktab hayoti esa o'quvchidan ixtiyoriy diqqatni shakllantirish bo'yicha doimiy mashqni, fikrni bir joyga jamlash uchun irodaviy sifatlarni

tarbiyalashni talab etadi. Ixtiyoriy diqqat o'qishni motivlashtirish, o'quv faoliyati samaradorligi uchun mas'uliyatni his etish kabi qator sifatlar bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri hissiy-obrazlilikdan mantiqiy-abstraklikka tomon o'sib boradi. "Bola shakllar, ranglar, tovushlar va ,umuman, sezgilar orqali fikrlaydi,"- deb yozadi K.D.Ushinskiy va o'qituvchilarga maktab ishining dastlabki davrlarida bola fikrlashining ana shunday xususiyatlariga tayanishni maslahat beradi. Dastlabki bosqichda maktab oldida turgan asosiy vazifa bola tafakkurini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, intellektni sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish darajasigacha rivojlantirishdan iborat. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola maktabga kelgan vaqtida intellekt taraqqiyoti past darajada bo'ladi. Maktabga kelgandan so'ng, odatda, intellekt shunday takomillashadiki, bundan keyin yoki oldin biror bir davrda bunday sur'atda taraqqiy eta olmaydi. Shuning uchun bu o'rinda o'qituvchi va maktabning o'rni nihoyatda katta. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar o'quv-tarbiya jarayonini turli xilda tashkil etilsa, ta'lim mazmuni va metodlari, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodikasi o'zgartirilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurining turli xildagi sifat ko'rsatgichlariga erishish mumkin ekan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri ularning nutqi bilan birgalikda rivojlanadi. Hozirgi zamon 4-sinf o'quvchisining o'rtacha so'z boyligi 3500-4000 so'zni tashkil etadi. Maktab ta'limining ta'siri faqatgina o'quvchi so'z boyligining oshishiga emas, balki ,eng avvalo, o'z fikrini yozma va og'zaki bayon eta olishdek muhim ko'nikmalarni shakllanishi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'quv-biluv faoliyatining takomillashuvida xotira ham muhim o'rin egallaydi. Maktab hayotining dastlabki boqichida turgan bolaning xotira bo'yicha tabiiy imkoniyatlari nihoyatda katta bo'ladi: uning miyasi o'ta egiluvchan bo'lib, so'zma-so'z yodlash bilan bog'liq topshiriqlarni osongina bajara oladi. Masalan, 15 gapdan maktabgacha yoshdagi bola 3-5 tasini eslab qolsa, kichik maktab yoshidagi bola 6-8 tagacha gapni eslab qola oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi xotirasi, asosan, ko'rsatmali-obrazli xarakterda bo'ladi. Qiziqarli, aniq va yorqin ma'lumotlarni xatosiz eslab qola oladi. Ammo bu yoshda o'quvchilar o'z xotirasini boshqarish va uni o'quv topshiriqlariga bo'ysundirishni bilmaydilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda o'quv materialini yod olish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tekshirish hamda o'quv faoliyatini samarali tashkil eta olish ko'nikmalarini shakllantirishga katta ahamiyat berishi talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining shaxs sifatida shakllanish jarayoni kattalar (o'qituvchi) va tengdoshlar(sinf doshlar)i bilan bo'ladigan yangicha munosabatlar, faoliyatning (o'qish faoliyati) hamda muloqotning yangicha turi yaxlit jamoalar tizimi safiga qo'shilish jarayoni bilan birgalikda kechadi. Unda ijtimoiy tuyg'u elementlari, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari (jamo adoshlik, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi, o'rtoqlik, o'zaro yordam,o'zaro hurmat) shakllana boshlaydi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda axloqiy sifatlar va shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining ta'sirchanligi, ishonuvchanligi, taqlidchanlikka moyilligi, o'qituvchi shaxsining u uchun katta obro'ga ega ekanligi unda yuksak axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Axloqiy xulq-atvor me'yorlarining asosi aynan boshlang'ich ta'lim sharoitida vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuvida boshlang'ich ta'limning ahamiyati nihoyatda beqiyos.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni ongli tashkil etiladigan, ularning imkoniyati darajasida bo'lgan ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish ularda ijtimoiy sifatlarning shakllanishi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar bajaradigan mehnat o'z-o'ziga xizmat, kattalarga ko'maklashish xarakterida bo'ladi. Ayniqsa, mehnatning tashabbuskorlik, mustaqillik, ijobiy ma'nodagi o'zaro raqobat muhitida olib boriladigan o'yin bilan hamohang tashkil etilishi samarali natijalarga olib keladi. Ongli tarzda bajariladigan, foyda va cheksiz zavq-shavq keltiradigan o'yinlarni tashkil etish orqali o'qituvchi bolalarning ajoyib mo'jizalarga boy dunyoni bilishga qiziqish, harakat faolligini qondirishga intilish xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash kerak bo'ladi. Shundagina bolalarda mehnatsevarlik, faoliyat madaniyati, jamoaviy faoliyat ko'nikmalarining shakllanishi uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularning yosh xususiyatlariga, tushuncha hamda qiziqishlariga mos keladigan asarlar bilan tanishtirib borish talab etiladi. Bolalarda ertak, ermak, hikoya, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ko'nikmalarini hosil qilishga e'tibor qaratiladi. Asar mazmuni bo'yicha beriladigan savollarga javob berish, xarakterlar bilan bajariladigan ermaklarni, qisqa she'rlarni ertak va hikoyalarning mazmuniga ta'sir o'tkazmay (tarbiyachi bilan birga, keyinchalik mustaqil) takrorlash kabi ko'nikmalarni o'stirish, bolalarda asarlar bo'yicha ishlangan rasmlarga nisbatan qiziqishni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotni obrazli idrok etish ko'nikmalarining ham maqsadli ravishda shakllanishiga yordam beradi.

Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. SHularga bog'liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ yondashuv bilan PIRLS topshiriqlarini tayyorlash tizimini joriy etish" 2023-yil 15-avgustdagi 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son Farmoni
3. Safo Matchon „Maktabda bolalar adabiyotini sinfdan tashqari o'qish". T.O'zbekiston,75-b.
4. Safo Matchon "Adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish usullari". –T.O'zbekiston.154-b.
5. Ro'ziyeva M.Y.Bolalar folklori. O'quv qo'llanma. –B.: "Durdona", 2022. –241 b.